

12. Мамурова Д. П. и др. УЧЕБНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ СТУДЕНТОВ ПО РЕШЕНИЮ РАЗЛИЧНЫХ ДИДАКТИЧЕСКИХ ЗАДАЧ В РАЗВИТИИ ПРОСТРАНСТВЕННОГО ВООБРАЖЕНИЯ СТУДЕНТОВ //European science. – 2021. – №. 2 (58). – С. 29-31.
13. Бадиев, М. М., Собиров, Т. Р., Авлиякулов, М. М., & Азимов, С. С. (2021). АНАЛИЗ ОБРАТНЫХ ЗАДАЧ В НАЧЕРТАТЕЛЬНОЙ ГЕОМЕТРИИ. Наука и образование сегодня, (5 (64)), 76-77.
14. Nazarova S. M., Zaripov G. T. GENERAL PHYSICAL PROPERTIES OF IRRIGATED GRASS SOILS OF BUKHARA OAZIS AND WAYS TO IMPROVE THEM //Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – Т. 4, – №. 3. – С. 66-69.
15. Djalolovich Y. N, et al. IMPROVING THE PROFESSIONAL TRAINING OF FINE ART TEACHERS //European science. – 2021, – №. 2 (58). – С. 44-46.
16. Авлиякулов, М. М., Собиров, Т. Р., Бадиев, М. М., & Азимов, С. С. (2021). ОБЩИЕ ЗАКОНЫ КОМПОЗИЦИИ В РЕЗЬБЕ ПО ДЕРЕВУ. European science, (2 (58)), 32-34.
17. Samadiev, A. S., Nayimovich, A. S., & Nosirovna, S. M. (2021). Technology Of Teaching Fine Arts And Science Classroom. International Journal of Progressive Sciences and Technologies, 25(2), 109-111.
18. Авлиякулова Н. М. и др. РОЛЬ КУЛЬТУРЫ И ИСКУССТВА В ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ К ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ //European science. – 2021. – №. 2 (58). – С. 95-97.
19. Остонова, Г. Р., Ибадуллаева, Ш. И., Муенинова, А. С., & Авлиякулова, Н. М. (2021). ДИДАКТИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ОБУЧЕНИЯ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМУ ИСКУССТВУ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ. European science, (2 (58)), 104-106.
20. Kadirov O. M., Kadirova N. A., Kahhorova M. METHODS OF USING FOLK TALES AND FOLKLORE ABOUT CRAFTS IN THE ORIENTATION OF YOUNG PEOPLE TO THE PROFESSION //E-Conference Globe. – 2021. – С. 74-77.
21. Хакимова, Г. А., & Кадирова, Н. А. (2021). НАСКАЛЬНАЯ ЖИВОПИСЬ В ПРОИСХОЖДЕНИИ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА. Наука и образование сегодня, (5 (64)), 78-80.
22. Шомуродов, О. Н., Ширинов, А. Л., Батиров, Д. С., & Хакимова, Г. А. (2021). МЕТОДОЛОГИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦВЕТОВ И КРАСКИ ПРИ ОБРАБОТКЕ ИЗОБРАЖЕНИЙ. Наука и образование сегодня, (5 (64)), 80-82.
23. Ботиров, Д. С., Шомуродов, О. Н., & Ширинов, А. Л. (2021). МЕТОДИКА ИЗУЧЕНИЯ ИСТОРИИ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА. European science, (2 (58)), 101-103.
24. Odilova, M. O. "Improving the pedagogical potential of biology teachers using computer programs." International Engineering Journal For Research & Development 5.9 (2020): 4-4.
25. MAMATOV, D. The Role of Computer Graphics in Developing Students Space Imagination. JournalNX, 6(10), 304-309.
26. Yadgarov N. D., YAdgarov D. D. Dizajn sozdaniya komp'yuternyh animacionnyh modelej po nachertatel'noj geometrii //Teoriya ta praktika dizajnu.– 2012. – №. 1. – P. 197-200.

idish orqali ishlov beriladi. Mis buyumlar ko'proq Buxoro, Qo'qon, Samarqand, Qarshi va Xiva shaharlarida ko'proq yasaladi. Misgarlikda bu shaharlar ustalarining o'zgacha ishlash uslublari bor. Amaliy san'atning bu turida Buxorolik S.G'aybullaev, M.Muxsimov, Xorazimlik S.Podchaev, A.Xomidov, X.Saidov, M.Zonbekov, B.Yoqubov, Toshkentlik R.Sobirovlar ko'zga ko'rinarli mehnat qilgan.

Xalq amaliy san'ati o'zining qadimiyligi, go'zallikka boyligi va jimjimadorligi bilan yuksak baholanadi. Uning asosiy materiallari zar iplar va baxmal kabilardir. Zar tikishning ham o'ziga xos usullari bor.

Xonani zar bilan tikib to'ldirish zardo'zlikda juda keng rivojlangan bo'lib, bunda erkaklarning shohona choponlari, etiklari, ayollar ko'ylaklari, oyoq kiyimlari, do'ppilari zar bilan bezatilgan. Hozirgi kunda esa har-xil sovg'alar va ommaviy zardo'zlik buyumlari yaratilmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: " O'zbekiston ", 2009.
2. Amaliy san'at qisqacha lug'ati. – Toshkent: Qomuslar boshtahriyati, 1992.
3. Bulatov S.S., A. Dadashev. Naqsh alifbosi. – Toshkent, 2005.
4. Toshxo'jayev Sh.S. O'zbekiston amaliy badiiy san'ati. T., O'zbekiston Markaziy nashriyoti, 1971.
5. Bulatov S.S. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. – Toshkent: Mehnat, 1991.
6. Tuxsanova V.R. Xalq og'zaki ijodi namunalaridan ta'lim- tarbiya, axloq-odob masalalarining yoritilishi.-Ilmiy axboroti-BuxDu (110-116 betlar) 2010 yil 2-son.
7. Tuxsanova Viloyat Rajabovna. History of Applied Art And Its Types Middle European Scientific Bulletin (2021/2/6,9) Viloyat Rajabovna Tuxsanova Terms Found in Folk and Applied Art and Terms in the Art of Drawing Patterns 2021/10/1 " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM 88-91
8. Mamurova D. I., Ibatova N. I., Badieva D. M. THE IMPORTANCE OF USING THE KEYS-STADI INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGY METHOD IN TRAINING THE IMAGE MODULE OF GEOMETRIC SHAPES //Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – T. 4. – № 1. – С. 335-338.
9. Сулаймонова, Мухиба Болтаевна, et al. "ДОСТИЖЕНИЕ ЭСТЕТИЧЕСКОЙ И НРАВСТВЕННОЙ ЗРЕЛОСТИ ОБУЧАЮЩИХСЯ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМУ ИСКУССТВУ." European science 3 (59) (2021): 53-56.
10. Аминов, Акмал Шавкатович, et al. "ПРОБЛЕМЫ ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ СТУДЕНТОВ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ." European science 2 (58) (2021): 77-79.
11. Собирова, Ш. У., Ядгаров, Н. Д., Мамурова, Д. И., & Шукуров, А. Р. (2021). ОСНОВЫ, ЦЕЛИ И ЗАДАЧИ ОБУЧЕНИЯ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМУ ИСКУССТВУ. European science, (2 (58)), 62-65.

Bundan tashqari reyka, sovun, rajja (ip boylangan tosh) chizmakashlar uchun sirkul (pargor) chizg'ich va boshqalar. Yog'och o'ymakorligi ham amaliy san'atning qadimdan mavjud bo'lgan turidir.

Yog'och o'ymakorlik asarlari eshik, deraza, quticha, ustunlar, panjaralar turli o'yinchoqlarda o'z aksini tasvirlagan. Hozirgi kunda esa yog'och o'ymakorligidan javonsozlikda, sandiqsozlikda ham foydalanilmoqda. Yog'och o'ymakorligi xalq amaliy san'ati orasida salmoqli o'rinni egallaydi. Bu borada Xiva ustalarining ishlari (ota Polvonov) maqtovga sazovor. Ular yaratgan asarlarida ko'proq o'simliksimon elementlari va ularning bo'rttirib ishlaganligida ko'rish mumkin. Buxoro, Toshkent, Samarqand ustalari esa geometrik shaklda o'yilgan bu naqshlarni bog'dodi deb atashgan. Ya'ni S.Xo'jayev, N.Ziyaqoriyev, M.Qosimov, O.Fayzullaevlar «girix» usulida ishlaganlar Yog'och o'ymakorligi san'atida musiqa asboblari bezash ham alohida ahamiyatga ega. Dutor, tanbur va torlarga suyak va sadaflardan qadalgan chiroyli naqshlar o'ymalarikishi diqqatini o'ziga tortadi. O'yma naqshlarining ham o'ziga xos shakllari va elementlari bor. Masalan, bog'dodi: geometrik shaklda (girix) naqshi, turinch naqshi – bu ranglar yordamida chizilganligi uchun pardori turish deyiladi. Muqarnas deb ikki qavatli qilib o'yilgan naqshlarga aytiladi. Bu naqshlar qattiq yog'ochlarga o'yiladi. Gul elementlaridan tuziladi. Bargli islimiy – barg elementlaridan tuziladi. Bofta islimiy kabi turlari mavjud bular, avvalo, qog'ozga chizib, buyumga tushiriladi. Buyumni o'yishdan oldin, buyum yuzini yumshatish uchun paxta moyi surtiladi. Yog'och o'ymakorligida ishlatiladigan daraxtlar, qarag'ay, oq qarag'ay, tog' teragi, terak va qayin, shum tol, chinor, nok, o'rik, archa boshqalardir. Yog'ochlarga xilma-xil naqshlarni o'yish usullari uchun po'lat, iskanalar ishlatiladi. Masalan: kuracha, navo, to'g'ri iskanalar, iskana, zamin, chekma, morpech, kovza va boshqa ish qurollari. Har xil usullarda o'yilgan naqshlarning atrofini «hoshiya» nomi bilan ataluvchi naqshlar bilan bezatiladi. Hoshiya o'rtada ishlatilgan naqshlarga nisbatan sayozroq o'yiladi va shu bilan birga o'rtadagi naqsh kompozitsiyasi mos bo'ladi. O'yilgan buyumning badiiyligi yanada oshadi. Yog'och o'ymakorligini ham o'ziga xos o'yma turlari mavjud bo'lib, bular:

I. Chizma yo'li bilan o'yiladigan naqshlar.

1. Ishkomcha – bog'dodi naqshi atrofiga ishlatiladi.
2. Halqacha – eshik va javonlarning atrofini bezashda ishlatiladi.

II. Chekma yo'li bilan ishlatiladigan naqshlar.

1. Chizma bilan nuqtadan hosil bo'lgan naqshlar hashanli mehrobcha deyiladi. Bu chizma naqshlar oraliqlariga nuqta qo'yishi bilan chiqariladi.
2. Chizma bilan morpechdan hosil bo'lgan naqshlar chizma naqshlar va morpech gullarining bo'linmasidan hosil bo'lgan hoshiya naqshlardir.

Xalq amaliy san'atining asosiy turlaridan biri misgarlik – kandakorlik san'ati juda qadimdan shuxrat qozonib kelmoqda. Bu san'atda naqshlar rangli metallar sariq, qizil mislarga, tillaga zarb berib ishlangan. Amaliy san'atning noyob namunalari sanalgan qadimgi naqshinkor mis barkashlar, ko'rachalar, qumg'onlar va mis laganlar, eshik halqalari, choy idish, obdasta va boshqalar fikrlarimiz dalilidir. Mis o'ymakorligi naqshi shu bilan xarakterlanadiki, undan so'ng qalamlari bolg'acha bilan

qaramay, har biri o'z fe'li-atvori bilan ajralib turadi. Mualliflar bu haykalchalarni chindan maxorat bilan ishlagan. Hozirgi kunda kulolchilik san'atiga etibor yana kuchaydi. Bir necha kulollarni birlashtirgan kulolchilik ustaxonalari bo'lib, ular xalq talabiga va didiga mos buyumlarni yaratmoqdalar.

Xalqimiz kulolchilik san'atini rivojlantirishda kulolchilik ustalardan Jo'raqulov, A.Muxtorov, U.Umarov, A.Xazratqulov, M.Nazrullaev, R.Matjonov, A.Nig'monov aka-uka Xojimarovlar va shu kabi bir qator san'atkorlar katta hissa qo'shganlar.

Ganchkorik – O'zbekistonda amaliy san'atning eng sevimli va qadimiy turlaridan biridir. Avvallari devorlar oynagulli panolar bilan bezatilar, taxmonlar qirrasida naqshlar o'yilar edi. Hozirda qandil, navo, ship kabi me'morchilik detallari ganchdan tayyorlanmoqda. Ganch o'ymakorlik san'ati hozirgi kunda tez sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. U turmushimizga chuqur singib bormoqda, Ganchkorik san'ati namunalarini xalq amaliy san'ati muzeyida, badiiy ko'rgazma zallarida, kino va teatr zallarida madaniy va maishiy xizmat ko'rsatish binolarida ko'ramiz. Bundan tashqari temir yo'l binolarida, aeroport binolarida, mehmonxonalarda, muzeyda, choyxona, kafe-restoran, hattoki xonadonlarimizda ham bu o'lmas san'at o'z ko'rinishini namoyon etib, ko'zlarni quvontirmoqda. Ganch o'ymakorligining ham o'ziga xos turlari mavjud. Jumladan, o'ymakorlik tekis relefli va hajmli o'ymalarga bo'linadi.

1. Tekis relefli o'ymalar o'z navbatida ikkiga bo'linadi: a) zaminli o'yma - fon qismi mavjud bo'lgan masalan: tosh oyna zaminli o'yma, zamini rangli o'ymalar. b) Ayrim xomaki zanjirlardan ganch kompozitsiyasi atrofida ramka sifatida foydalaniladi.

2. Hajmli o'ymalar: bu o'ymalar hajmiga ega bo'lgan o'ymalardir. Bularga sharofa gumbaz va qandillar kiradi. Bundan tashqari ganch o'ymakorligida pardozlash usullari bo'lib bular ham o'z navbatida ikkiga bo'linadi. 1 - oddiy pardoz, 2 - murakkab pardoz. Oddiy pardoz - pax (yoyma) pardoz. Murakkab pardoz - choka pardoz, tabaqa pardozlar, Pax pardozlar bir tomonlama qilib kesiladi. Bu ko'proq zanjira va qiya o'ymada barg, gul, novda elementlarida qilib o'yiladi.

Lo'la pardoz: yarim yumaloq shaklda pardozlanadi. Bu pardozlash ko'pincha qiyma ganchlarda ishlatiladi. Bundan tashqari turunjlarda ham ko'p qo'llaniladi. Choka (yorma) pardoz-naqsh bandlarining qiyaligini o'rtaga olib, uzunasiga o'yilgan pardoz turidir. Bu pardozlash turidan juda qadim zamonlardan foydalanib kelingan. Uning namunalarini ko'proq Varaxsha va Afrosiyob vayronalaridan topilgan. Bu pardoz turi juda keng tarqalgan. Tabaqa pardozini Buxoro ustalari ko'p qo'llaydi. Ayniqsa, usta Shirin Murodov tabaqa pardozini ko'p ishlatgan. Ganchkorlarda shunday pardozlash usullari mavjud ekan. Demak, uning o'ziga xos asboblari ham mavjud, bulardan masalan:

- | | |
|----------------|---|
| 1. Qalam | 5. Pux qalam |
| 2. Pilta qalam | 6. Patak binni |
| 3. Minqor | 7. Nova |
| 4. Shturgardon | 8. Lo'lakas |
| | 9. hamda boshqa ish anjomlari shular jumlasidandir. |

Naqqoshlik xalq amaliy san'atining eng qadimiy va keng tarqalgan turlaridan biridir. Naqqoshlik san'atining gurkirab rivojlanishi bevosita O'rta Osiyoda islom dinining kirib kelishi bilan bog'liqdir. Chunki islom dini tirik mavjudodni tasvirlashni ta'qiqlab qo'yadi. Naqqoshlikda o'simliksimon, geometrik, har xil arab yozuvli naqshlar va boshqa turdagi ishlar paydo bo'ladi. Naqqoshlik san'ati juda ko'p fanlar va san'atning boshqa turlari bilan uzviy bog'liqdir. Uning o'ziga xos xususiyatlaridan biri ham ana shundadir. Masalan, naqshlarni $1/2$; $1/4$; $1/8$ kabi bo'laklariga bo'lib ishlaganda, matematikgeometrik naqshlar tahlil qilinsa, geometriya fani bilan uzviy bog'liqligi ayon bo'ladi. Ya'ni, uchburchak to'rtburchak, shakllardan tuzilgan naqshlar geometriya faniga asoslanib yaratiladi.

Geometrik naqshlarni chizmachiliksiz tasavvur qilish yoki chizish mumkin emas. Bundan tashqari naqshlardan misgarlikda yog'och va ganch o'ymakorligida, kulolchilikda ham keng foydalaniladi. O'quvchilarga naqqoshlik haqida tushuncha berar ekanmiz, uning element va turlari bilan boshqa xalqlar naqqoshlik san'atidan ajralib turadi. Naqqoshlikdan barg elementlari, (oddiy barglar, murakkab shoxbarg, gazakbarg) gul elementlari, (katta oygul, kichik oygul) bofta, shikifta, elementlari mavjud.

Naqsh turlari esa tuguncha, islimiy va grih turuni bir xil elementlardan tashkil topgan naqsh. Islim (arabcha) yuguruvchi degan ma'noni bildirib, to'g'ri yo'l ichiga ilonsimon iz shaklida chiziladigan chiziqdar. Bu naqqoshlikning eng keng tarqalgan guruhlar turidir. Girix (arabcha) – murakkab naqshlar, tuguncha ma'nosini bildiradi. Girix (handasiy) geometrik shakllarni tartib bilan joylashtirishdan hosil bo'ladi.

Tabiiy loydan turli idishlar yasashda va ularni tegishli ranglarga bo'yash - kulolchilik san'atidir. Kulolchilik O'zbekistonda juda qadimdan rivojlangan. Kulolchilik san'ati buyumlariga lagan, tovoq, choynak, piyola, sopol, chinni idishlar va shuningdek, loydan yasalgan o'yinchoqlar kiradi. Kulolchilik san'atida bezatishning turli usullari qo'llaniladi.

Bulardan biri «qalam» usulidir. Bu usulda bezak to'g'ridan to'g'ri, aynan buyumga axta orqali bosilmasdan bezak berilaveradi. Bu usulda ko'proq Rishton bilan G'ijduvon ustalari ishlashadi. Ba'zi joylarda esa ustalar oldin gulaxta orqali gul chizib keyin bo'yoq berishadi: bu «chizma» usuli deyiladi. Bu ko'proq Toshkentlik ustalar orasida keng tarqalgan. O'zbek kulolchilik san'ati buyumlaridagi bezak kompozitsiyalari o'simliksimon va geometrik elementlarning boyligi va xilma-xilligi, bo'yoqlar gammasining yorqinligi bilan ajralib turadi. Ularda feruza ranglar baxt keltiruvchi rang sifatida ko'p ishlatiladi.

Kulolchilik me'morchilikda ham keng qo'llangan. Madrasa, masjid, karvonsaroy, hammomlarning peshtoqlarida kulolchilikdan keng foydalanilgan. Bundan tashqari sopolidan turli-tuman afsonaviy hayvonlar, qushchalar, baliqlarning shakllarini yasash kabi mo'jaz san'at azaldan kulollarimizning sevimli mashg'uloti, ernagi bo'lgan.

Ayrim joylarda hozir ham xom va kuydirilgan loylardan hushtakchalar, turli o'yinchoqlar, haykalchalar yasaydigan ustalarni uchratish mumkin. Muqovadagi tarvuz va to'ppi sotuvchilar basavlat oqsoqollar, bir-biriga zo'r berib gap o'qitayotgan suhbatdoshlarga bir qarang.

Beozorgina tabassum uyg'otuvchi bu mitti haykalchalar. Yaltiroq shishasimon qotishma bilan sirlangan sopolidan yasalgan. Ularning bo'yi bir necha millimetrdan bir necha santimetrgacha keladi. Shunga

O'quvchilarni xalq ustalari ijodidagi badiiy bezak obrazlari bilan tanishtirish, borliqqa estetik munosabatini o'stirishda yordam beradi.

Xalq amaliy bezak san'ati o'quvchilar badiiy didini o'stirish bilan bir qatorda, ularga borliqni idrok etish va unga estetik munosabatda bo'lishni shakllantiradi: O'quvchilarning badiiy moyilliklarini amaliy jihatdan to'g'ri yo'naltirish ularga keyinchalik shu jihozlarni, kiyim-kechaklarni to'g'ri tashkil etishda, qadimda va hozirgi badiiy bezak amaliy san'at asarlarining estetik mohiyatini tushunib olishida ko'maklashadi.

O'quvchilarning xalq amaliy san'atini idrok etishlari va borliqqa estetik munosabatlarini o'stirish uchun quyidagi tushuncha va ma'lumotlarni singdirish kerak:

- xalq amaliy san'atlarining turlari: unda ishlatiladigan asbob va materiallar, qo'llaniladigan usullarni bilish;
- xalq badiiy bezak va amaliy san'atiga oid ma'lum terminlarni bilish;
- o'tmish va hozirgi xalq amaliy san'ati ustalarini bilish; yuqori badiiy saviyada ishlagan va mamlakatimiz hamda shuningdek, chet ellarda saqlanayotgan xalq amaliy san'ati bilan bog'liq bo'lgan asarlarni bilish;
- o'tmish va hozirgi davrlarda O'zbekistonda mavjud bo'lgan xalq amaliy san'ati bilan yirik tarixiy va madaniy yodgorliklarini bilish;
- ijtimoiy foydali ishlarga va shuningdek chet ellarda, turmushda xalq amaliy san'atidan foydalana bilish.

Xalq amaliy san'atini o'rganish tasviriy, ijodiy faoliyatda ham katta ahamiyatga ega. Masalan, o'quvchilar avvalgi xalq hayoti bilan bog'liq bo'lgan mavzuda, jumladan, uy jihozlari (gilam, so'zana, patnis, lagan, tovoq, choynak, piyola, choyidish, sandiq, quti, xum xontaxta va boshqalar) kiyim-kechaklar: to'n, ko'ylak, do'ppi, qiyiq, tillaqosh, etik, ro'mol, va boshqalar bahs yuritish jarayonida ularni tayyorlashga ham qiziqadilar.

Yog'och va ganch o'ymakorligida buyumlarni tasvirlashda xalq amaliy san'atidan olgan bilim va tushunchalari qo'l keladi. Xalq amaliy bezak san'atidan olib boriladigan suhbatlar amaliy san'at turlarini ketma-ketlik asosida tushuntirib berishdan iborat bo'lishi dars samaradorligini oshiradi. Binobarin, badiiy bezak amaliy san'atining xalq hayotidagi o'rni beqiyos. Talabalarga shu jihatdan tushuntirilib, mazkur san'atning kundalik hayotimizda ishlatiladigan buyumlar: idish-tovoq, kiyim-kechak, gilam, mebel buyumlari, o'yinchoqlar va shu kabilarni bezatishda ishlatilishi ko'rsatib beriladi. Dekorativ san'at asarlari odamlarning kundalik turmush ehtiyojlarini qondirish, tevarak atrofga, bog'larga, uylarning tashqi va ichki ko'rinishlariga go'zallik kiritish uchun qo'llaniladi. Bu san'at o'zining xalq ehtiyojida moslaganligi bilan ahamiyatli. Dekorativ amaliy san'atda real narsalar aks etishi mumkin, lekin ular mustaqil xarakterga ega bo'lmay, balki ma'lum bir buyum shakli va mazmuni bilan bog'liq. Dekorativ amaliy san'at buyumlari birmuncha erkin san'atkor fantaziyasi asosida yaratiladi: va eng avvalo, atrofga go'zallik kiritishga qaratiladi. Masalan, jinjimador ustun, eshik va darvozalar, turli naqsh va bo'rtma tasvirlar bunga misol bo'la oladi.

**O'quvchilarni Amaliy Bezak San'atiga Bo'lgan
Qiziqishlarini Oshirish Yo'llari**



SCIENCE BOX

Viloyat Rajabovna Tuxsanova

Buxoro davlat universiteti "San'atshunoslik" fakulteti

Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" kafedrasida katta o'qituvchisi, O'zbekiston Badiiy Akademiyasi ijodkorlar uyushmasi a'zosi Izoh

Annotation:

Maqola o'rta umumta'lim maktablarining o'qituvchilari hamda tasviriy san'at va muhandislik grafikasi, kasbiy ta'lim "Amaliy san'at" yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan. Amaliy san'at turlari (naqqoshlik, ganchkorlik, kulolchilik, mis kandakorligi, zardo'zlik va h.k) to'g'risida qisqacha ma'lumotlar berib o'tilgan. O'quvchilarning xalq amaliy san'atini idrok etishlari va borliqqa estetik munosabatlarini o'stirish uchun quyidagi tushuncha va ma'lumotlarni singdirish.

Keywords: